

# QARDOSH XALQLAR HAMKORLIGI: O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RТАSIDAGI O'ZARO ISHONCH ASOSIDAGI MUNOSABATLAR VA KELAJAKDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi  
Mirzabekova Ruxsora Ilxam qizi*

**Annotation:** Mazkur maqolada O'zbekiston va Turkiya o'rtaсидаги hamkorlik tarixi, bu hamkorlikning qanchalik chiqur ildiz otganligi va ushbu hamkorlik doirasidagi kelakjak istiqbolligi uchun qanday sohalarga e'tibor qaratilayotganligi, unda ikki turkiy xalqning madaniy va ma'naviy qadriyatları bu hamkorlikni yanada chuqurlashtirib kelmoqdaligi ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** qardosh turkiy xalq, Turkiya, do'stlik, strategik hamkorlik, iqtisodiy savdo-sheriklik, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, madaniy-gumanitar, mintaqaviy integratsiya

Turkiya – bizga tarixan qardosh bo'lgan xalq, o'z madaniyati, katta merosiy tarixi va go'zal san'ati bilan doim ajralib turadi. Turkiya nafaqat bizning iqtisodiy tomonlama hamkorimiz, balki u biz uchun madaniyati, dini, etnik kelib chiqishi jihatidan qardosh xalq sanaladi. O'zbekiston va Turkiya o'rtaсидаги do'stlik va hamkorlik tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Ikki xalqning madaniyati va ma'naviy qadriyatları bu hamkorlikni yanada chuqurlashtirilishiga turtki bo'lmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Turkiya davlati mustaqil davlatlar qatoridan mamlakatimizni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo'lib tan oldi. 2024-yilning mart oyida O'zbekiston va Turkiyaning rasmiy diplomatik aloqa o'rnatganligiga roppa-ros 30 yil bo'ldi. Keyinchalik bu ikki davlat o'rtaсида munosabatlar o'rnatilib, hozirgi kungacha ta'lim, madaniyat, iqtisodiyot, sanoat va texnologiya, ayniqsa, turizm sohalaridagi hamkorliklari jadallik bilan o'sib bormoqda, balki istiqbolli hamkorlik amalga oshirilishida yaqin ko'makchi bo'lib kelmoqda. Joriy yilgacha ikki davlat prezidentlari amalga oshirgan rasmiy tashriflari doirasidagi

istiqbolli iqtisodiy savdo-sheriklik, strategik munosabatlar va mintaqalararo xavfsizlik bo'yicha kelishuvlarni rivojlantirish yuzasidan muzokaralar olib borildiva o'zaro ishonch, do'stlik rishtalari yanada mustahkam bog'lanishiga va tarixda yangi sahifa ochilishiga zamin yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Aytib o'tish joizki, Turkiy Tilli Davlatlar Kengashi (Turkiy Kengash) ham bu ikki davlatning aloqalari mustahkamlanishida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu borada, bu ikki qardosh davlatlar rasmiy tashriflar o'tkazib kelmoqdalar. Turkiy Tilli Davlatlar Kengashining maqsadi turkiy davlatlar o'rtaсидаги iqtisodiyot, turizm, sanoat, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rag'batlantirish, undan tashqari, ular o'rtaсидаги mintaqaviy xavfsizlik va tinchlikni barqarorlashtirishdir. Keying yillarda Turkiy Tilli Davlatlar sammiti mintaqaviy va kelaja istiqboli uchun amaliy sa'y- harakatlar olib bormoqda. Masalan, dolzarb masalardan "Yashil makon", klasterlar, qo'shma korxonalar hamkorligini rivojlantirish kabi masalalardir. Davlatimiz rahbari 2018-yil 3-sentyabr kuni Qиргизистонning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan sammitda fahriy mehmon sifatida faol ishtirok etdi. O'zbekiston Turkiy kengash va Turkiya davlati doirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor.

Bunday aloqalar rivojlanib borar ekan, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlar borligi va madaniy-gumanitar sohalarni rag'batlantirish ikki qardosh xalqni yanada yaqinlashishiga turtki bo'lmoqda. Betakror tarixi va ulkan shaharlari bilan o'ziga jalb etuvchi Turkiya yiliga 40 million sayyohni qabul qiladi, mamlakat turizm sohasida yiliga o'rtacha 30 milliard AQSH dollari hajmida foyda oladi. Ko'rinish turibdiki, qardosh xalqimizning bu sohadagi tajribalarini o'rganish va keljakda kerakli turizm sohasi bo'yicha yaxshi kadrlarni yetishtirish mamlakatimiz uchun foydadan holi emas, albatta.



Yana bir yorqin misol sifatida, yaqinda ikki qardosh davlat munosabatlari tizimida yangi muloqot shakli – oliv darajaga ega O’zbekiston-Turkiya strategik hamkorlik kengashini tuzilganligini aytsak bo’ladi. O’zaro savdo hajmiga nazar tashlasak, 2016-yilda O’zbekiston va Turkiya o’rtasidagi savdo hajmi 1,2 milliard AQSH dollariga yetgan bo’lsa, 2017- yilda esa bu ko’rsatkish 1,5 milliard dollariga yetdi.

2020- yildagi mahsulot ayriboshlash hajmiga ko’ra, 2016- yilgiga ko’ra ikki barobarga o’sdi va 2 milliard AQSH dollarida oshdi. O’zbekistonning ulkan bozori, tobora erkinlashayotgan iqtisodiyoti, qulay investitsiyaviy muhiti, tarixiy shaharlari va qadamjolari Turkiyada katta qiziqish uyg’otmoqda, shu sababli, bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning 12 foizini turk kapitali ishtirokidagi korxonalar tashkil etmoqda. Hammaga ma’lumki, Turkiyaning to’qimachilik va zargarlik buyumlari sanoati dunyodagi top 5 talikka kiradi. Demak, Turkiyada kiyim- kechak va zargarlik buyumlari sifati shu darajaga

mos, shu sababli, kundalik turmush tarzimizda ayniqsa, ayollar e'tiboridan chetda qolmaydigan va xaridorgir kiyim-kechaklar ham ana shu davlatdan ishlab chiqariladi.

Ikki qarosh mamalakatlar O'zbekiston va Turkiyao';rtasidagi hamkorlik o'zaro ishonch, tarixiy ildiz, madaniy va til yaqinligiga asoslangan, bugungi kunda bu hankotlik va do'stlik rishtalari tobora chuqurlashib bormoqda. Har ikki mamlakat o'rtasida o'rnatilgan ta'lim, iqtisodiy, madaniy, turizm, sanoat va xavfsizlik aloqalari keskin rivojlanib bormoqda. So'z isboti sifatida aytib o'tish lozimki, ayniqsa, Turkiy Tilli Davlatlar Kengashi doirasidagi hamkorlik mintaqaviy integratsiyani mustahkamlanishi esa barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi. Tepada ta'kidlaganimdek, savdo- iqtisodiy tomonlama rivojlanib borayotgani ham, Turkiya tajribasini turizm va sanoat kabi strategik sohalarda qo'llash, O'zbekistonning ham shu sihalarda elajakda ilg'or bo'lishiga ko'maklashadi. Shunday ekan, ikki qardosh xalqning uzoq muddatli va ko'p qirrali hamkorligi kelgusida ham yuksak darajada rivojlanib, mintqaq tinchligi va taraqqiyoti yo'lida muhim omil bo'lib qoladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### ***Foydalanilgan manbalar:***

1. <https://parliament.gov.uz/ru/articles/433>
2. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-va-turkiya-hamkorligi-yangi-bosqichga-kotarilmoqda\\_636565](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-va-turkiya-hamkorligi-yangi-bosqichga-kotarilmoqda_636565)
3. <https://isrs.uz/oz/page/pdf/ozbekiston-va-turkiya-munosabatlari-keng-qamrovli-strategik-sheriklik-darajasiga-kotariladi>
4. [https://uza.uz/oz/posts/turkiya-ozbekiston-diplomatik-munosabatlariga-33-yil\\_694558](https://uza.uz/oz/posts/turkiya-ozbekiston-diplomatik-munosabatlariga-33-yil_694558)